

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI
TEKNOLOGIYALAR VAZIRLIGI



RITM
RAQAMLI
IQTISODIYOT
TADQIQOTLARI
MARKAZI



zenodo

Google
Scholar

doi
DIGITAL
OBJECT
IDENTIFIER

**“RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY
INTELLEKT TEKNOLOGIYALARINING
JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI
AHAMIYATI”**

**MAVZUSIDAGI
XALQARO
ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**

2024 - YIL 22 - NOYABR, TOSHKENT, O'ZBEKISTON

UO‘K: 338.2

KBK: 65.05

Taqrizchilar: Akademik S.S.Gulyamov
i.f.d., prof. T.T.Jo‘rayev

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashining 2024 yil 29
noyabrdagi 4-sonli yig‘ilishning 5.3-sonli Qarori asosida chop etishga tavsiya
etilgan. –T.: TDIU., 2024. – 2440 b.**

i.f.d., prof. T.Z.Teshabaevning umumiy rahbarligi ostida

Tahrir hay’ati a’zolari: prof. G.K. Abduraxmanova, prof. S.Mexmonov,
prof. Sh.Sindarov, prof. U Xalikov, dots. N. Mavlanov, dots. S. Mirzaliyev,
dots. N Akbarov, dots. D.Mirzayev, prof. J.Baltayev va ““Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-
elektron jurnali tahririyati azolari” B. Axmedov, U. Abdullayevlar.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o‘rni, muammo va ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq yechimlar, shuningdek mamlakatimiz soxa olimlari, tajribali amaliyotchilar, oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining yetakchi ilmiy xodimlari, doktorant va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy tadqiqot ishi natijalari mujassamlashgan.

Ushbu nashrda keltirilgan barcha ma’lumotlar va fikr-mulohazalar mualliflarga tegishli bo‘lib, tahrir hay’ati a’zolarining fikriga mos kelmasligi mumkin. Nashrda keltirilgan raqamlar, statistik ma’lumotlar, fikr-mulohazalar uchun mualliflar mas’ul hisoblanadi.

UO‘K: 338.2

KBK: 65.05

ISBN 978-9943-13-999-7

© Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2024

“Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2024-yil 22-noyabr, Toshkent, O‘zbekiston

KONFERENSIYANING TASHKILIY KO‘MITASI



Teshabayev Tulkin Zakirovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
E-mail: t.teshabayev@tfi.uz




Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
E-mail: g.abdurakhmanova@tsue.uz


TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI



Mexmonov Sultonali Umaraliyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
E-mail: s_mexmonov@tsue.uz



Sindarov Sherzod Egamberdiyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor
Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
E-mail: sindarov_sh@tsue.uz



Xalikov Ulug‘bek Rustamovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
E-mail: u.khalikov@tsue.uz



Mavlanov Normumin Normamatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
E-mail: mavlanovnn@tsue.uz



Mirzaliyev Sanjar Maxamatjan o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
E-mail: s.mirzaliyev@tsue.uz

“Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2024-yil 22-noyabr, Toshkent, O‘zbekiston



Akbarov Nodir Gafurovich

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekani
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
E-mail: nodirakbarov@tsue.uz*



Mirzayev Dilshod Aminovich

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedra mudiri
Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
E-mail: mdilshod@mail.ru*



Baltayev Jo'shqin Boltabayevich

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasini
Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor
E-mail: j_baltayev@tsue.uz*



Haydarov Kamoliddin Baratovich

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasini
Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
E-mail: k.khaydarov@tsue.uz*



Axmedov Bexruz Ibroxim o'g'li

*"Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali tahririyati bo'lim
boshlig'i
E-mail: b.akhmedov@derc.uz*



Abdullayev Ulug'bek Maxmudovich

*"Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali tahririyati
yetakchi mutaxassisi
E-mail: u.abdullayev@derc.uz*

MUNDAREJA

KIRISH SO‘ZI.....	25
I-SHO‘BA	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR.....	27
<i>Ziyadullayev Zuxriddin</i> Bank innovatsiyalarini joriy etish bo'yicha xorijiy tajribasi va uni O‘zbekistonda amaliyotiga moslashtirish imkoniyati.....	28
<i>Sherkulov Shohruh Erkin o‘gli</i> Raqamli texnologiyalar - innovatsion iqtisodiyotning asosiy omili	33
<i>Абдуғаниев Ядгарбек Жавланович</i> Инновацион иқтисодиётда креатив индустриянинг афзалликлари.....	39
<i>Axmedova Nafisa Amirddin qizi</i> Oziq-ovqat klasterlarini tashkil etish va qo‘llab- quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	44
<i>Bahronova Shaxodat Baxshulloyevna</i> Raqamli texnologiyalar-innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning asosi.....	50
<i>Jafarova Hilola Xalimovna</i> Mintaqa turizmini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari.....	55
<i>Alisher Boltayev</i> Revolutionizing trading enterprises: a comprehensive approach to enhancing management information systems.....	60
<i>Mavlonov Ozod Ulug‘bekovich</i> Elektr tarmoqlari korxonalarida raqamlashtirishning ahamiyati.....	67
<i>Хуррамова Мафтунахон Журабековна</i> Влияние цифровизации на экономику страны.....	71
<i>Abaskhanova Khalima Yunusovna</i> The impact of innovative technologies on remote monitoring of agricultural products.....	77
<i>Abaskhanova Khalima Yunusovna</i> The advantages of digital technologies in enhancing the efficiency of agricultural enterprises.....	83
<i>Mallayev Oybek Usmankulovich</i> Iqtisodiy jarayonlarda mashinaviy o‘qitish algoritmlari asosida qaror qabul qilish modulini ishlab chiqish.....	88
<i>Toshboyeva Feruza To‘lqin qizi</i> Iqtisodiyotni raqamlashtirishda axborot texnologiyalari tizimlarining ahamiyati va ma’lumotlar xavfsizligida elliptik egri chiziqlar kriptografiyasi.....	93
<i>Toshtemirov Temirbek Qodirjon o‘g‘li</i> Simsiz sensor texnologiyalar asosida (sanoat 4.0) sharoitida qishloq xo‘jaligini rivojlanish istiqbollari.....	98
<i>Sunnatov Muxtor Ne‘matovich</i> Intellektual mulk ob’ektlarini tijoratlashtirishda “kraudfanding” platformasining imkoniyatlari.....	102
<i>Navruzov Ikram Abdullayevich</i> Tijorat banklari xizmat sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning xorij tajribalari.....	110
<i>Saipova Dilnoza Shuxratovna</i> Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri: ish o‘rinlarini avtomatlashtirish va yangi ish ko‘nikmalarini rivojlantirish.....	117
<i>Raxmonov Abduxalil Rasulovich</i> Kasaba uyushmalarining mehnat bozoridagi texnologik o‘zgarishlarga moslashishi va ishchilarni qo‘llab-quvvatlashi.....	121
<i>Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich</i> Sun'iy intellektning tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri: raqobatbardoshlik va innovatsiya.....	128

<i>Xudoyarov Rashid To‘ychiyevich, Axrorov Elyorjon Baxtiyor o‘g‘li</i> O‘zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish.....	132
<i>Ё.Т.Иброҳимов</i> Банклараро валюта бозорини янада ривожлантириш.....	136
<i>Махмутходжаева Луиза Сайфулловна</i> Инновационные тренды и технологии ии в предпринимательстве.....	143
<i>Yuldashev Feruz Isroil o‘g‘li</i> The impact of digital development on the autonomy and competitiveness of higher education institutions.....	150
<i>Umarov Elshod G‘ulom o‘g‘li</i> Socio-economic efficiency of industrial enterprises in uzbekistan: an environmental perspective.....	154
<i>Абдугафаров Абдухалил, Ачилов Салоҳиддин Саломович</i> Современные цифровые технологии в сфере ЖКХ Узбекистана.....	161
<i>Yuldasheva Umida Asanaliyevna</i> Digital technologies in the system of modern models of interaction between taxpayers and tax authorities.....	168
<i>Raxmatullayeva Firuza Mubinovna</i> Mintaqalar raqobatbardoshligini oshirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	172
<i>Xomidov Mirodiljon Xasanboy o‘g‘li</i> Directions of utilizing digital technology and innovations for advancing industrial cooperation in Uzbekistan automobile production sector.....	176
<i>Яцук Анна Иосифовна</i> Цифровые технологии в формировании инновационной экономики республики беларусь.....	181
<i>Имомов Хамдулло Хамдамович</i> Корхонанинг инвестицион фаолиятига инновацияларни жалб этиш масалалари.....	186
<i>Kurbanov Abdulaziz Muzafarovich</i> Analysis of organizational and economic indicators of innovative activity of enterprises producing spare parts for the automotive industry of the republic of Uzbekistan.....	191
<i>Жумаев Шухрат</i> Яширин иқтисодиёт улушини қисқартириш борасида солиқ маъмурчилигини рақамлаштириш масалалари.....	196
<i>Bakhronova Shaxodat Baxshulloyevna</i> Comparative analysis of methods for assessing the financing of innovative developments of the enterprise.....	201
<i>Худайназарова Дилором Хайруллаевна</i> Цифровая экономика как основной аспект исследования цифровой трансформации экономическx отношений.....	206
<i>Хусаинов Равшан Рахимович</i> Цифровые технологии в формировании инновационной экономики в узбекистане.....	213
<i>М.В.Бекназарова</i> Mintaqada klasterlash tizimini rivojlantirish orqali hududiy bandlikni oshirish.....	219
<i>Yo‘ldoshev Ozodbek Abduvohid ugli</i> Digital innovations in the modern world: prerequisites and possibilities of use.....	222
<i>Ruzikulova Dilnoza Xoliqovna</i> Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida inson kapitalini rivojlantirish masalalari.....	225
<i>Yuldasheva Nilufar Abduvakhidovna</i> Improving the information supply model for the implementation of innovative strategies.....	230
<i>М.М.Қулдасева</i> Yashil iqtisodiyotga o‘tishda “yashil texnologiyalar”ni joriy etishning zarurati.....	236
<i>Arzimatov Bobirmirzo Zokirjon ugli</i> Innovative management of ai technologies to enhance tourism.....	240
<i>Vafoyeva Dilafruz Ikromovna</i> To‘qimachilik sanoatida innovatsiyalar yohud ekologik muammolar.....	244

“Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2024-yil 22-noyabr, Toshkent, O‘zbekiston

университет. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный экономический университет, 2023. – С. 179-182. – EDN HDRNTL.

5. Nazaralieva Shohsanam Ilkhom Kizi, & Yuldasheva Umida. (2023). ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF THE WORLD MONETARY SYSTEM IN THE PERIOD AFTER THE COVID -19 PANDEMIC. *American Journal of Business Management, Economics and Banking*, 11, 60–63. Retrieved from <https://www.americanjournal.org/index.php/ajbmbe/article/view/611>

6. У.А.Юлдашева, & Ш.Наимов. (2023). PROMISING DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF FOREIGN EXCHANGE TRANSACTIONS IN UZBEKISTAN. *Intent Research Scientific Journal*, 2(5), 50–60. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/96>

7. Yuldasheva U. A., Raxmatov A. T. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANI KENGAYTIRISHDA TASHQI SAVDO ALOQALARINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 14. – С. 25-30.

8. Юлдашева У. А., ўғли Наимов Ш. О. ХАЛҚАРО ВАЛЮТА БОЗОРИ ВА ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 13. – С. 66-72.

9. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF "TAX POTENTIAL" AND METHODS OF ITS ASSESSMENT. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 21–25. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/302>

10. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). TAX POTENTIAL AS AN INDICATOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGION. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 41–45. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/305>

MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI



Raxmatullayeva Firuza Mubinovna
Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Buxoro davlat universiteti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14191633>

Annotatsiya: Raqamli texnologiyalar mintaqalar iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada mintaqaviy iqtisodiyotning raqamlashtirish jarayoni, mintaqalar raqobatbardoshligini oshirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati va ularning ta'siri o'rganiladi.

Keywords: raqamlashtirish, mintaqaviy iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish.

KIRISH

Hozirgi davrda iqtisodiy rivojlanish va innovatsion jarayonlarning global miqyosda amalga oshirilishi, mintaqaviy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyatini oshirib bormoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat iqtisodiy faoliyatni avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirishga, balki innovatsion g‘oyalarni tezroq va kengroq miqyosda amalga oshirishga imkon beradi.

Mintaqaviy iqtisodiyotni raqamlashtirish bugungi kunda global rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mintaqalar uchun raqamli transformatsiya iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi, innovatsion salohiyatni oshiradi va iqtisodiy faoliyatning samaradorligini yaxshilaydi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi mintaqaviy iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarini tahlil qilish va ushbu jarayonning ahamiyatini yoritishdir.

Milliy raqamli iqtisodiyotning asosiy maqsadi raqamli infratuzilma asosida iqtisodiy faoliyatning barcha bo‘g‘inlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish va optimallashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishdir. Biroq, mamlakatning barcha mintaqalarini raqamlashtirishda muvaffaqiyatga erishilmasa, bunga erishib bo‘lmaydi, chunki mamlakat iqtisodiyoti uning mintaqalari va alohida korxonalar iqtisodiyotidan iborat. Binobarin, bugungi kunda mamlakatimiz mintaqalarida raqamli iqtisodiyotning turli jihatlari va uning shakllanish jarayonlarini o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi vaqtda raqamli iqtisodiyot kontseptsiyasining umumiy qabul qilingan ta’rifi mavjud emasligini aytish mumkin va raqamlashtirish, raqamli asr yoki raqamli transformatsiya kabi atamalar ko‘pincha bir-birining o‘rnini bosadigan tarzda qo‘llaniladi [1].

Yevropa Komissiyasi raqamli iqtisodiyot deganda o‘sishni o‘z ichiga olgan jarayon sifatida tushunadi va raqamli iqtisodiyot bu o‘sishni ifodalaydi. Raqamli iqtisodiyot innovatsiyalar, investitsiyalar va ish o‘rinlari yaratishda raqobat uchun rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib, iste’molchilar uchun bu tanlovni kengaytirish va shu bilan birga xizmatlarga nisbatan ularning sifatini oshirishdir [2].

Bugungi kunda mintaqaviy rivojlanish kontekstida raqamlashtirish ko‘pincha mavjud va rivojlanayotgan raqamli texnologiyalarni keng miqyosda o‘zlashtirish asosida iqtisodiyot, hukumat va jamiyatning barcha tarmoqlarining transformatsiyasi deb ataladi [3].

T.Mesenburg elektron biznes, uning infratuzilmasi va elektron tijoratni raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlari deb hisoblaydi [4].

E. J. Malecki va B. Moriset raqamli iqtisodiyotni iqtisodiyotning barcha jabhalarida dasturiy ta’minot, ilovalar va telekommunikatsiyalardan keng foydalanish sifatida belgilaydilar [5].

Jahon bankiga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli mehnat unumdorligi, kompaniyalarning raqobatbardoshligining oshishi, ishlab chiqarish tannarxining kamayishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi, kambag‘allikning va ijtimoiy tengsizlikning qisqarishi kuzatilayotgan iqtisodiyotdir [6].

Raqamli iqtisodiyot texnologiyalarining rivojlanishini yangi texnologik ukld deb hisoblash mumkin, va uning xususiyati doimiy yangilanish va o‘zgarish deb atash mumkin. Texnologik o‘zgarishlar ko‘plab jarayonlarning ajralmas qismiga aylanib bormoqda, bu ko‘plab sohalar uchun ularning integratsiyasi va raqobat pozitsiyalarini mustahkamlash uchun yangi talablarni qo‘yadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi hududlarni rivojlantirishda raqamlashtirish rolining nazariy va uslubiy tamoyillarini asoslashdan iborat. Raqamli texnologiyalarning mintaqaviy iqtisodiyotga

ta’sirini o‘rganish uchun ilmiy abstraksiya, induksiya, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalar turli sohalarida innovatsion rivojlanishga turtki beruvchi vosita sifatida xizmat qilmoqda. Quyidagilar raqamli texnologiyalar yordamida mintaqaviy innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

1. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish: Sun’iy intellekt algoritmlarining iqtisodiy jarayonlarga joriy qilinishi bilan mintaqaviy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida samaradorlik oshmoqda.

2. Internet tarmoqlari va IoT (Internet of Things): IoT texnologiyalari yordamida ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini yanada samarali boshqarish imkoniyatlari yaratilmoqda.

3. Bulutli hisoblash tizimlari: Bulutli texnologiyalar bizneslar uchun katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlashni osonlashtirib, ularning tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

4. Katta ma’lumotlar tahlili: Big data analitikasi mintaqaviy iqtisodiyotda turli sohalarining tahliliy imkoniyatlarini kuchaytirib, strategik qarorlar qabul qilishda qo‘llaniladi.

Raqamli texnologiyalar sarmoyalarni jalb qilish, yangi qo‘shilgan qiymat yaratish, yuqori unumdor va yuqori texnologiyali yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishlab chiqarish va boshqaruvga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali butun iqtisodiyot uchun drayver rolini o‘ynaydi. Pirovardida, raqamlashtirish iqtisodiy o‘sish va turmush darajasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Global muammolar sharoitida mamlakat mintaqalarida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish muammosini hal qilish zarurati, ayniqsa, so‘nggi paytlarda jahon iqtisodiyotining globallasuvi, ham ichki, ham tashqi bozorda raqobatning kuchayishi, shu jumladan resurslarga va birinchi navbatda axborot resurslari uchun kurashning kuchayishi munosabati bilan ortib bormoqda.

Hududlarning resurs va raqobat salohiyatining o‘ziga xosligi, makon jihatidan rivojlanish darajasi va tarmoq ixtisoslashuvidagi farqlar har bir aniq hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va iqtisodiyotini raqamlashtirish jarayonlarining imkoniyatlari va sur‘atlarini belgilab beruvchi muhim omillardir. Raqamli transformatsiyalar davri mintaqalar rivojlanishi uchun nafaqat resurs komponentlarining mavjudligi va ulardan foydalanish, balki aniq ustuvorliklarni belgilash va ulardan samarali foydalanish sharti bilan mintaqaviy siyosat va inson kapitali sifatidan kelib chiqadigan yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Mintaqalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari tizimini tanlash va asoslashda, ayniqsa, bugungi kunda yuzaga kelayotgan, hududlarning makon va tarmoq jihatidan rivojlanishi uchun yangi shart-sharoitlar yaratayotgan raqamli voqelikning asosiy jihatlariga jiddiy e’tibor qaratish zarur. Va birinchi navbatda, bu transformatsiya tezligi. Raqamlashtirish davrida vaqt, makon va masofa qisqaradi, bu esa har qanday qarorlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan muddatni qisqartirishni talab qiladi. Mavjud axborot hajmlari, ularni qabul qilish va qayta ishlash tezligi sezilarli darajada oshdi, bu esa hududning makon va tarmoq tuzilmasini rivojlantirishdagi bir qator muammolarni samarali hal qilish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarning yana bir o‘ziga xos xususiyati - bu ularni integratsiya qilish va birgalikda ishlatish imkoniyati bo‘lib, nafaqat alohida kompaniyaning biznes jarayonini o‘zgartirishga, balki butun sanoat va bozorni butunlay o‘zgartirishga imkon beradigan kuchli sinergetik va tizimli ta’sirni ta’minlaydi.

Raqamli texnologiyalar innovatsion mintaqaviy iqtisodiyotni shakllantirishda quyidagi asosiy yo‘nalishlarda muhim ahamiyatga ega:

- Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish: Raqamli texnologiyalar avtomatlashtirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi va resurslar samaradorligini ta’minlaydi.

“Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2024-yil 22-noyabr, Toshkent, O‘zbekiston

- Yangi ish o‘rinlari yaratish: Raqamli iqtisodiyot yangi mutaxassisliklar va sohalarni paydo qilish orqali mehnat bozorini diversifikatsiyalaydi.
- Innovatsiyalarni tezkorlik bilan amalga oshirish: Raqamli texnologiyalar innovatsion jarayonlarni soddalashtirib, ularning tezkor va samarali ravishda bozorga chiqarilishiga imkon beradi.
- Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish: Raqamli platformalar va tarmoqlar mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirib, iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi.

Mintaqalarda raqamlashtirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ulkan imkoniyatlarni ochib beradi, lekin shu bilan birga, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida tarmoq tuzilmasini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator ijtimoiy va institutsional muammolarga yechimlarni talab qiladi. Asosiy muammolar qatoriga infratuzilmaning yetarli emasligi, kadrlar malakasining pastligi va texnologiyaga bo‘lgan moliyaviy resurslarning cheklanganligi kiradi. Ko‘pgina tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, raqamlashtirish rivojlangan va depressiv hududlar o‘rtasida yanada katta tafovutga olib kelishi mumkin. Yechimni talab qiladigan eng dolzarb muammolar qatorida quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

- mintaqaviy iqtisodlarning xilma-xilligi va ularning resurslar ta’minotining zaifligi;
- mintaqaviy iqtisodiyotlarini raqamli transformatsiya bo‘yicha uslubiy ishlanmalar va me’yoriy hujjatlarning yo‘qligi;
- mintaqaviy iqtisodiyot tuzilmasining tarmoqlarini innovatsion va texnologik qayta jihozlashning past sur’atlari.

Shunga qaramay, davlat siyosati va mintaqaviy strategiyalarning muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi bu muammolarni yengib o‘tish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqaviy iqtisodiyotni raqamlashtirish va raqamli hayotni rivojlantirish mintaqaviy makonda bir qator muhim ijtimoiy-iqtisodiy samaralarga erishish imkonini beradi:

1. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’atlarini va uning sifatini oshirish, ya’ni mintaqalarning hududlari va tarmoqlarini rivojlantirishdagi tarkibiy nomutanosibliklarni muvozanatlashtirish.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy resurslar va sharoitlardan teng foydalanishni ta’minlash, jamiyatning inklyuzivligini oshirish.
3. Zamonaviy infratuzilmani yaratish va uzluksiz rivojlantirish orqali mintaqalar aholisining turmush darajasini oshirish.
4. Davlat-xususiy sheriklikni jadal rivojlantirish, aholi va ishbilarmon doiralarning hokimiyat organlariga ishonchini oshirish.
5. Ilmiy-innovatsion faoliyatni jadallashtirish va samaradorligini oshirish, hududlarni innovatsion va texnologik rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash. Bu yo‘nalishda raqamlashtirish bilim va axborotdan cheksiz foydalanish uchun shart-sharoitlarni ta’minlaydi va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali innovatsiyalarni rag‘batlantiradi.
6. Raqamli madaniyatni rivojlantirish va mintaqaning ham mamlakat ichida, ham jahon iqtisodiy makonida raqobatbardoshligini oshirish.

Raqamli texnologiyalar mintaqaviy innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki innovatsion g‘oyalarning keng qamrovli amalga oshirilishini ham ta’minlaydi. Shu sababli, mintaqaviy siyosat va strategik rejalar raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

“Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2024-yil 22-noyabr, Toshkent, O‘zbekiston

1. Antonescu, D. (2013). The Regional Development Policy of Romania in the Post-Accession Period. Working Papers, the Romanian Academy, the National Institute of Economic Research, Bucharest. Retrieved from <http://www.workingpapers.ro/2013/wpince131209.pdf>
2. European Commission Digital Economy. – 2018. — [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://ec.europa.eu/taxation_customs/fair-taxation-digital-economy_en
3. Kilpeläinen A, Seppänen M (2014) Information technology and everyday life in ageing rural villages. J Rural Stud 33:1–8
4. Mesenbourg T.L. Measuring the Digital Economy. U.S. Bureau of the Census. [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://www.census.gov/content/dam/Census/library/working-papers/2001/econ/digitalecon.pdf> (дата обращения: 13.08.2020).
5. Malecki E. J. The digital economy: Business organization, production processes and regional developments / E. J. Malecki, B. Moriset. NY: Routledge, 2008. 296 p.
6. Всемирный банк (2016). Цифровые дивиденды. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/10986/23347/210671RuSum.pdf>

DIRECTIONS OF UTILIZING DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATIONS FOR ADVANCING INDUSTRIAL COOPERATION IN UZBEKISTAN AUTOMOTIBLE PRODUCTION SECTOR



Xomidov Mirodiljon Xasanboy o'g'li
Fergana Polytechnic Institute, Uzbekistan
PhD student
murodil.xomidov@inbox.ru
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14191708>

Abstract: *This paper investigates the significant impact of digital technologies and innovations on the development of industrial cooperation within Uzbekistan's automotive sector. Focusing on recent trends, this research aims to examine how digital solutions such as Industry 4.0, Internet of Things (IoT), artificial intelligence (AI), and cloud computing foster collaboration among automotive enterprises.*

Keywords: *Digital technology, automotive sector, industrial cooperation, innovations, Uzbekistan, Industry 4.0, artificial intelligence, IoT.*

Introduction

The automotive sector in Uzbekistan is experiencing a transformation driven by digital technology and increased industrial collaboration. Amidst global shifts towards interconnected production systems, the role of digital innovation in fostering collaborative growth has become increasingly important. This paper explores how digital technology can be leveraged to foster industrial cooperation among automotive enterprises in Uzbekistan. The research aims to demonstrate how these technologies can improve efficiency, deepen partnerships, and ultimately help build a sustainable and competitive automotive industry[1].

Azizov & Partners (2021) provide a localized perspective on the automotive industry in Uzbekistan, highlighting specific challenges, such as outdated infrastructure and limited technological capabilities, as well as opportunities for growth. Their work underscores the importance of government intervention in driving digital innovation, focusing on policies that